



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 3

Languages of publication: **Uzbek**, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





XUROSONNING SO'NGI MALIKASI

Salohiddinova Mohira Shahobiddin qizi

Qo'qon davlat universiteti 2-bosqich talabasi

mohirasalohiddinova369@gmail.com

tel: +998931215483

Annotatsiya. Ushbu maqola temuriylar saltanatining so'nggi davri siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan Hadicha begimning hayoti, faoliyati va uning Xuroson taxtiga ta'siri haqida so'z yuritadi. Hadicha begim — Sulton Husayn Boyqaroning suyuqli xotini bo'lib, o'zining makr-hiylalari va siyosiy intilishlari bilan saltanat tarixiga chuqur iz qoldirgan shaxs. Maqolada Hadicha begimning kanizaklikdan malikaga ko'tarilishi, haramda obro'-e'tibor qozonishi, o'g'li Muzaffar Husayn Mirzo manfaatlarini ko'zlagan siyosiy o'yinlari, Mo'min Mirzo fojiasida tutgan o'rni, Shayboniyxon istilosi davrida boshidan kechirgan qismat va umrining so'nggi yillari o'rganilgan.

Abstract. This article discusses the life and work of Khadicha Beg, who played an important role in the political life of the last period of the Timurid Empire, and her influence on the throne of Khorasan. Khadicha Beg was the beloved wife of Sultan Hussein Baykara, and left a deep mark on the history of the empire with her cunning and political aspirations. The article examines Khadicha Beg's rise from a concubine to a queen, her rise to prominence in the harem, her political games in the interests of her son Muzaffar Hussein Mirza, her role in the tragedy of Momin Mirza, her fate during the invasion of Shaybani Khan, and the last years of her life.

Аннотация. В данной статье рассматривается жизнь и деятельность Хадичи Бег, сыгравшей важную роль в политической жизни последнего периода Тимуридской империи, и её влияние на трон Хорасана. Хадича Бег была любимой женой султана Хусейна Байкары и оставила глубокий след в истории империи благодаря своей хитрости и политическим амбициям. В статье исследуется восхождение Хадичи Бег от наложницы до царицы, её возвышение в гареме, её политические игры в интересах её сына Музаффера Хусейна Мирзы, её роль в трагедии Момина Мирзы, её судьба во время вторжения Шайбани-хана и последние годы её жизни.

Kalit so'zlar: Hadicha begim, Husayn Boyqaro, temuriylar, Xuroson, Muzaffar Husayn Mirzo, Mo'min Mirzo, Badiuzzamon Mirzo, Shayboniyxon, Boburnoma, saltanat, XV–XVI asr.

Keywords: Hadicha Begum, Husayn Baykara, Timurids, Khorasan, Muzaffar Husayn Mirza, Momin Mirza, Badiuzzaman Mirza, Shaybani Khan, Baburnama, empire, 15th–16th centuries.

Ключевые слова: Хадича Бег, Хусейн Байкара, Тимуриды, Хорасан, Музаффар Хусейн Мирза, Момин Мирза, Бадиуззаман Мирза, Шайбани-хан, Баburnама, империя, XV–XVI века.

Temuriylar sulolasi tarixida ko'plab buyuk hukmdorlar, ulug' shoirlar va donishmand davlat arboblari yashab o'tgan. Biroq bu xonadonning siyosiy





hayotida ayollarning ham o'zni o'ziga xos ahamiyat kasb etardi. Ular orasida Sulton Husayn Boyqaroning suyuqli xotini Hadicha begim ham alohida e'tiborga loyiq. U o'zining jozibali husni va ayyor siyosati bilan nafaqat saroyda, balki butun Xurosonda kuchli ta'sirga ega bo'ldi. Ayni paytda, uning saltanat ishlariga aralashuvi ba'zi hollarda fojiali oqibatlarga olib keldi. Tarixchilar va adabiyotshunoslar Hadicha begim haqida turlicha fikr bildirgan. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da uni: "O'zini oqila tutar edi, vale beaql va purgo'y xotun edi" deb ta'riflaydi.[1]. Bu baho uning murakkab shaxsiyatiga oid eng qisqa, ammo eng aniq tavsiflardan biridir. Hadicha begim hayotini o'rganish nafaqat shaxsiy biografik qiziqish uchun, balki XV asrning ikkinchi yarmi — XVI asr boshidagi Xuroson tarixini kengroq tushunish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Hadicha begim 1451-yilda Hirot shahrida amir Muhammad Sariq oilasida tug'ilgan. Otasi dastlab Shohrux Mirzo, keyinchalik Abulqosim Bobur saroyida xizmat qilgan. 1456-yilda Abu Said Mirzo Hirotni egallagan va bir qator a'yonlarni jazolagan. Taxminlarga ko'ra, amir Muhammad Sariq ham shu jazo qurbonlaridan bo'lgan.[2]. 1457-yilda uning ahli-ayoli, shu jumladan 6 yoshli Hadicha begim ham Abu Said Mirzoga hadya etilgan. Abu Said Mirzo 1465-yilda Hadicha begimni o'z nikohiga olgan. Ulardan Oq begim ismli qiz farzand dunyoga kelgan.[3]. 1469-yilda sulton Abu Said Mirzo Iroqdagi jangda halok bo'lgach, Husayn Boyqaro Hirot taxtiga o'tiradi va marhum sultonning haramiga kirgach, yoshgina Hadicha begimni ko'rib, uni sevib qoladi. Malikaning idda muddati (uch oy) tugagach, Husayn Boyqaro uni o'z nikohiga oladi. Shunday qilib, bir vaqtlar kanizak bo'lgan qiz endi Xurosonning qudratli hukmdori xotiniga aylanadi.

Husayn Boyqaroning jami 11 ta xotini bo'lgan.[4]. Saroydagi rivoyatlarga ko'ra, Hadicha begim yosh, go'zal va jozibador ayol edi. Biroq tarixiy manbalarda u ko'pincha ichi qora, makr-hiylaga moyil va dimog'dor xotin sifatida tasvirlanadi. Sulton Husayn Boyqaro zamonida Hadicha begim haramdagi barcha xotinlar orasida eng nufuzli o'rinni egallagan. Uning sultonga ko'rsatgan ta'siri shunchalik kuchli ediki, davlat ishlari ham Hadicha begimning istak va xohishlarini hisobga olmasdan hal etilmay qoldi. Husayn Boyqaroning 14 o'g'li va 11 qizi bo'lgan.[5]. Hadicha begimdan esa ikki o'g'il — Shohg'arib Mirzo va Muzaffar Husayn Mirzo tug'ilgan. Hadicha begim o'z o'g'li Muzaffar Husayn Mirzoni saltanat merosxo'ri qilish maqsadida tinimsiz harakat qildi. Uning bu intilishi nafaqat saroy nizolariga, balki temuriylar sulolasining inqiroziga ham olib keluvchi kuchli omillardan biriga aylandi. O'sha davr an'anasiga ko'ra, valiahd shahzoda sultonning katta xotini Beka Sulton begimdan tug'ilgan to'ng'ich o'g'li — Badiuzzamon Mirzo edi. Biroq Hadicha begim o'z o'g'li Muzaffar Husayn Mirzoni taxtga o'tkazish uchun doimo yo'l izlardi. Saroydagi ko'p kishilar, jumladan Alisher Navoiy boshchiligidagi davlat arboblari valiahdlikka Badiuzzamon Mirzoning o'g'li — 11 yoshli Mo'min Mirzoni munosib deb bilishardi. 1497-yilda sulton Husayn Boyqaro Hisorga qarshi harbiy yurish boshlaydi. Sulton farmoni bilan Astrobod hokimi Badiuzzamon Mirzo o'rniga o'g'li Mo'min Mirzoni qoldiradi va o'zi otasining qo'shiniga





qo'shiladi. Jang tugagach, Hadicha beginning qistovi bilan sulton Muzaffar Mirzoni Astrobodga, Badiuzzamonni esa Balxga hokim etib tayinlaydi.[6]. Bu farmon Badiuzzamon Mirzoning nafsoniyatiga qattiq tegadi — chunki bu uning amalda valiahdlilik huquqidan mahrum etilishini anglatardi. Badiuzzamon Mirzo otasining amrini bajarishdan bosh tortadi. Alisher Navoiy uni otasi bilan yarashtirish uchun shaxsan Balxga boradi. Shahzoda dastlab ustozini oldida ta'zim qilib, yarashishga rozi bo'ladi. Ammo Badiuzzamonning odamlari sultonning maxfiy farmonini — shahzodani qo'lga tushirib, zindonband qilish to'g'risidagi amrni ko'rib qoladi. Natijada yarashish fikridan voz kechiladi va ota-bola o'rtasidagi mojarolar qonli urushga aylanib ketadi. 1496-1497 yillarda ota-bola o'rtasidagi urushda Badiuzzamon Mirzo yengiladi. Muzaffar Mirzo Astrobodni egallaydi va 12 yoshli Mo'min Mirzoni asirga olib, Hirotidagi eng qo'rqinchli zindon — Ixtiyoriddin qal'asiga qamaydi. Hadicha begim ushbu qulay vaziyatdan foydalanib, vazir Nizomulmulk bilan til biriktirib, sarxush holda yotgan sulton Husayn Boyqaroga Mo'min Mirzoni qatl etish to'g'risida farmonga muhr bostirib oladi. Fursatni boy bermaslik uchun hukm o'sha tundayoq ijro etiladi.[7]. Sulton ertasi kuni hushiga kelib, voqeaning to'la dahshatini anglaydi va darhol yangi farmon jo'natadi. Ammo chopar Ixtiyoriddin qal'asiga yetib borganda, Mo'min Mirzo allaqachon fitna qurboni bo'lgan edi. Sulton bu fojining sababchilaridan qattiq qasos oladi — vazir Nizomulmulkning ko'z oldida uning ikki o'g'lini qatl ettiradi va o'zini ham azob-uqubatlar bilan o'ldirtiradi.[8]. Biroq asosiy aybdor Hadicha begim yana bir bor sultonning g'azabidan omon qoladi. Alisher Navoiy bu mudhish voqeani eshitib, Hirotga qaytgach, suyukli shahzodasining qatl etilganini bilgan ulug' shoir zor qaqshab yig'ladi. Mo'min Mirzo fojiasini u temuriylar xonadonining qiyomat alomati sifatida baholagan va shunday yozgan edi: "Mo'min Mirzoning qatli tufayli ulug' bir fitna vujudga kelib, mamlakat vayron bo'lishi, fuqaro boshiga cheksiz musibat tushishidan qo'rqrmen".[9].

1506-yilda sulton Husayn Boyqaro vafot etgach, ta'ziya bildirish uchun Hirotga kelgan Zahiriddin Muhammad Bobur Xadicha begim bilan ham ko'rishgan. Bobur Hadicha beginning qarorgohiga borib, unga shaxsan ta'ziya bildirgan va u bilan suhbatlashgan. Bobur aka-uka Badiuzzamon va Muzaffar mirzolar bilan Shayboniylar qarshi ittifoq tuzishni taklif qilgan, biroq Xuroson hukmdorlari bu taklifni qabul qilmagan.

Hadicha beginning saltanat ishlariga kalabinlik bilan aralashuvi natijasida 1506-yilda Husayn Boyqaro vafotidan keyin taxtga ikki shahzoda — Badiuzzamon Mirzo va Muzaffar Husayn Mirzo birgalikda o'tirishdi. Bu esa Xurosondagi ichki bo'linishni yanada kuchaytirdi va Shayboniylar uchun qulay shart-sharoit yaratib berdi. Shayboniylar 1507-yilda Jayxundan kechib o'tib, Hirotga yurish boshladi. Birinchi to'qnashuvidayoq Badiuzzamon Mirzo Tabrizga, Muzaffar Mirzo esa Astrobodga qochdi. Hirot mudofaasi Hadicha begim boshchiligidagi uquvsiz beklar va xotin-qizlarga qoldi. Shayboniylar shaharni osongina zabt etdi. Istilo davomida Shayboniylar boshqa temuriy malikalar singari Hadicha begimni ham saroy kotibi Mansur baxshiga in'om qildi. Malikaning hayot tarzidagi bu dahshatli





o'zgarish uning o'tgan yillarda qilgan makr-hiylalarining tabiiy oqibati edi. Tarixiy manbalarda Hadicha begim umrining so'nggi kunlarini Hirotida, uy qamoqxonasida o'tkazgani qayd etilgan.

1509-yili Hadicha begim o'g'li Muzaffar Husayn Mirzoning Astrobodda ekanini eshitib, Hirot hokimidan ruxsat olib, uni ko'rgani yo'lga chiqdi. Astrobodga yetib borganda esa o'g'li o'lim to'shagida yotardi. Muzaffar Mirzo ko'p o'tmay vafot etdi. Hadicha begim o'g'lining ta'ziasini o'tkazgach, yana Hirotga qaytdi. Uning favoti haqida aniq ma'lumot mavjud emas. Manbalar 1510-yildan keyin Hadicha begim nomi zikr etilmaydi, shuning uchun u taxminan shu davrda vafot etgan bo'lishi mumkin. Saroyning nufuzli malikalari qatorida bo'lgan Hadicha begimning so'nggi yillari xorlik va yakkalik ichida o'tdi.

Xulosa. Hadicha begim hayoti va faoliyati temuriylar sulolasining siyosiy tarixida murakkab va ziddiyatli sahifalardan birini tashkil etadi. Bir tomondan, u davr uchun noodatiy darajada kuchli siyosiy irodaga ega bo'lgan ayol edi. Ikkinchi tomondan, uning bu irodasi ko'pincha shaxsiy manfaat va o'g'lining taxtga o'tirish intilishiga bog'liq holda namoyon bo'ldi. Natijada Hadicha begimning makr-hiylakor siyosati bir necha fojiaiy oqibatga — jumladan, Mo'min Mirzo qatliga va Xurosonning saltanat sifatida inqiroziga hissa qo'shdi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa tarixchi-adiblar Hadicha begimni tarixda qora iz qoldirgan shaxs sifatida izohlashgan. Biroq tarixni to'g'ri anglash uchun uni faqat salbiy qahramonlik prizmasida ko'rmaslik kerak. Hadicha begim — o'sha davrning og'ir siyosiy sharoitida o'z o'rnini topishga harakat qilgan, murakkab taqdir egasi. Uning hayoti temuriylar sulolasining so'nggi davrini va o'sha asrning siyosiy-ijtimoiy muhitini tushunishda muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, Hadicha begimning qismati Sharq hukmdorlik an'analari ayolning o'rni va ta'siri masalasini yangi nuqtai nazardan ko'rib chiqishga undaydi. Tarixdan ibrat olish nuqtai nazaridan esa uning hayoti shaxsiy manfaatlarni davlat manfaatlari ustun qo'yish qanchalik halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti, 1990.
2. Fayziyev T. Temuriy malikalar. — Toshkent: Fan, 2005.
3. Shamsiddinov R. Husayn Boyqaro va uning davlat boshqaruvi. — Toshkent: O'zbekiston, 2002.
4. Xondamir .Habibus-siyar. Fors tilidan tarjima. — Toshkent: Fan, 1994.
5. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. — Toshkent: Fan, 1968.
6. Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy. — Toshkent, 1996.
7. Lentz T.W., Lowry G.D. Timur and the Princely Vision. — Washington: Smithsonian Institution Press, 1989.
8. www.ziyouz.com — O'zbekiston madaniyati va adabiyoti portali

